

# **Uzbekistan Airways kasbga yo'naltirish tadbirini o'tkazdi**

**2021 12 Noyabr**

Bugun, 2021-yil 12-noyabr kuni Uzbekistan Airways fuqaro aviatsiyasi sohasida yoshlarni kasbga yo'naltirishga bag'ishlangan "Kelajakdagi kasbni tanlash" interaktiv tadbirini tashkil etdi. Tadbirda Olmazor tumanidagi 133-davlat ixtisoslashtirilgan maktabining yuqori sinf o'quvchilari, mehmonlar va OAV vakillari ishtirok etdi.

Tadbir ishtirokchilari Islom Karimov nomidagi "Toshkent" xalqaro aeroporti tarixini bilib olishdi va yo'lovchilarga qanday xizmat ko'rsatilayotganligining guvohi bo'ldilar. Shuningdek, maktab o'quvchilari aeroportning nazorat qilinadigan hududiga kirish, havo kemalarining uchish va qo'nishini kuzatish, Boeing 787 Dreamliner yo'lovchi havo kemasi kabinasiga tashrif buyurish, uchuvchi va bort kuzatuvchilar bilan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, aviakompaniya xodimlari havo kemalari qanday parvoz qilishi, perronda qanday jarayonlar sodir bo'lishi, havo kemasi qaysi payt o'ziga belgilangan to'xtash joyiga borishi va keyinchalik parvoz qilishi, xizmat ko'rsatishda qanday texnika jalb qilingani haqida gapirib berishdi.

Adiba Mengboyeva, kasbga yo'naltirilgan tadbir ishtirokchisi o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashdi: "Bugun biz shahrimizning havo porti qanday yashayotganini ko'rdik. Yuqori darajali uchuvchi va bort kuzatuvchilarni, kechayu-kunduz yo'lovchilarga xizmat ko'rsatayotgan barcha xodimlarni ko'rish juda yoqimli. Ushbu ajoyib ekskursiya tashkilotchilariga rahmat".

Ekskursiya ishtirokchilari aviatsiya muhitiga tushibgina qolmasdan, balki fuqaro aviatsiyasi murakkab, lekin juda qiziqarli soha ekanligiga ishonch hosil qilishdi.

"O'z ko'zing bilan aviatransportni ko'rish juda yoqimli. Bolalar mamlakatimiz fuqaro aviatsiyasi sohasi O'zbekiston iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlovchi kuch ekanligini bilib olishdi. Ularning orasida ham fuqaro aviatsiyasining kelajakdagi mutaxassislari bor deb umid qilamiz" - dedi 133-maktab direktori Nigora Zukurova.

Tadbir aviakompaniyaning ijtimoiy tarmoqlarida bo'lib o'tgan "Aeroportga sayohat" tanlovi g'oliblarini taqdirlash bilan yakunlandi. Barcha g'oliblarga va tadbir ishtirokchilariga "Uzbekistan Airways" AJ tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Telegram: [t.me/uzbekistanairways](https://t.me/uzbekistanairways)